

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVRSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SULTONOV ODILJON ZIYOMIDDINOVICH

**TURLI SIMMETRIYALI KRISTALL ICHIDA JOYLASHGAN NODIR
YER IONLARINING O‘ZIGA XOS MAGNITOOPTIK XUSUSIYATLARI**

01.04.05 – Optika

**Fizika - matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Fizika-matematika bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по физико–математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

Sultonov Odiljon Ziyomiddinovich

Turli simmetriyali kristall ichida joylashgan nodir yer ionlarining o‘ziga xos magnitooptik xususiyatlari 3

Султонов Одилжон Зиёмиддинович

Особенности магнитооптики редкоземельных ионов в кристаллическом окружении различной симметрии 21

Sultonov Odiljon Ziyomiddinovich

The rare-earth ions magnetooptics features in crystalline environments of the different symmetries 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVRSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SULTONOV ODILJON ZIYOMIDDINOVICH

**TURLI SIMMETRIYALI KRISTALL ICHIDA JOYLASHGAN NODIR
YER IONLARINING O‘ZIGA XOS MAGNITOOPTIK XUSUSIYATLARI**

01.04.05 – Optika

**Fizika - matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida raqam bilan B2022.4.PhD/FM806 ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.inp.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Valiyev Uygun Vaxidovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kurtaliyev Eldar Nuriyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Niyazov Laziz Nurxonovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «27» 02 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet ko'chasi, 15 uy. Tel.: (+99866) 239 -13-87, faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, 114-xona)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140145, Samarqand shahri, Universitet ko'chasi, 15 o'y. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» 02 kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» 02 dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X.Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

R.M.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.n., dotsent

D.I.Semenov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: So‘ngi yillarda jahonda quyi simmetriyali nodir yer (NY) birikmalari funksional ilovalarining keng rivojlanayotganligi sababli optikada ularning optik va magnitoptik xususiyatlarini o‘rganish va chuqur tushunishga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaymoqda. Turli matritsalarda nodir yer ionlari energetik spektrlari va magnitoptik faolligi tabiatini tadqiq qilish nafaqat fundamental, balki katta amaliy qiziqish uyg‘otmoqdaki, bu muhim ilmiy va amaliy masalalarning ba‘zi muhim aspektlari bugungi kunda ham yetarlicha to‘la aniqlanmagan va bir-biriga zidlikni namoyish qilmoqda.

Jahon ilm-fanida oxirgi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron holatlarning Shtark ajralishlari va nodir yer ionlarining magnitoptik xususiyatlarini ularning kristall qobiqlariga bog‘liqligini aniqlash hozirgi vaqtda o‘zining aniq yechimini talab qilayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yangi materiallarni ishlab chiqish ularning xarakteristikalarini shakllantirish qonuniyatlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Bundan tashqari quyi simmetriyali nodir yer birikmalari magnitoptikasida magnitoptik faollik (MOF)ning turli mikroskopik mexanizmlarining hissalarini tadqiq qilish jarayonlarida paydo bo‘ladigan qator savollar hanuzgacha juda kam o‘rganilgan.

Oxirgi yillarda, spektroskopiya sohasidagi yo‘naltirilgan istiqbolli tadqiqotlardan biri magnit maydoni orqali boshqariladigan nodir yer ionlari optikasi hisoblanadi. Tashqi magnit maydoni ta‘siri ostida nodir yer ionlari panjaraostilari (yoki kristallning spin-sistemalari) natijaviy magnit momentini burish, boshqarish imkonini beruvchi bunday turdagi magnitoptik hodisalar yordamida magnitoptik faollikning turli mikroskopik mexanizmlari to‘g‘risida muhim axborotlar manbai bo‘lib xizmat qiladigan lyuminessensiya yoki yutilish spektrlarida tor chizikli yoki sirkulyar qutblangan chiziqlar tashkil etuvchilarining paydo bo‘lishi, yo‘qolishi va siljishlarini boshqarish mumkin. Nodir yer ionlari bilan faollashtirilgan monokristallar magnitoptik qurilmalar, optik kvant generatorlari va kuchaytirgichlari va boshqalarda keng foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunda turli materiallar ichidan Faradey aylanishi burchagining katta qiymatlariga ega bo‘lgan paramagnit kristallarni topish bo‘yicha ishlar jadal suratlarida davom etmoqda. Ko‘pgina Faradey paramagnit muhitlari faol ionlar sifatida nodir yer ionlarini o‘z ichiga oladi, ularda $4f^{(n)} \rightarrow 4f^{(n-1)}5d$ elektrodipol o‘tishlari mavjud bo‘lib, ular qutblanish tekisligining ko‘rinadigan va infraqizil spektr sohalarida magnitoptik aylanish uchun javobgardir. Nodir yer kristallarining yuqori optik shaffoflikka ega bo‘lishlari zaruriyatini e‘tiborga olsak, $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ (KTF) kaliy-terbiyli ikkilangan fluorid kristallari va tarkibida Tb^{3+} va Dy^{3+} ionlari bo‘lgan ortoaluminatlar katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi, chunki ular keng spektr diapozonida yetarlicha katta magnitoptik effekt va yuqori shaffoflikni ta‘minlaydi. Bir vaqtning o‘zida o‘lchashlarning magnitoptik metodlaridan foydalanish orqali (yorug‘likning magnitoptik yutilishi, yorug‘likning qutblanishi tekisligining magnitoptik burilishi, magnit-qutblangan lyuminessensiya va

boshqalar) ularning $d \rightarrow f$ (yoki $f \rightarrow d$) va $f \rightarrow f$ optik spektrlarini tadqiq qilishning effektiv amalga oshirish imkonini beradiki, ular o'ta sezgirliklari va yuqori ajrata olish qobiliyatlari bilan ajralib turishadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda 2017–2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining kelgusi rivojlanishi bo'yicha harakatlar Strategiyasi asosida besh ustuvor yo'nalishlarga mos holda ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish, ilmiy va inovatsion yutuqlarni amaliyotga qo'llashning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlaridagi maxsus laboratoriyalar qoshida yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklarni tashkil qilishning maqsad va vazifalari aniqlandi. Shu sababli, nodir yer birikmalari optik va magnitoptik spektroskopiya metodi ham tegishli bo'lgan tadqiqotlarning ilmiy-eksperimental metodlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqot metodlari nafaqat O'zbekiston olimlarining balki dunyoning turli mamlakatlari rivojlangan yuqori texnologiyalar ilmiy markazlari mutaxassislarining ham diqqatini o'ziga qaratadi. Ushbu dissertatsiya ishida olingan natijalar, tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 7 may 2018 yildagi PQ-3698 "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning: II "Energiya, energiya va resurslarni tejash, transport, mashina va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asboblarni ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Bugungi kunda ilmiy olamda nodir yer magnit dielektriklarining fundamental tadqiqotlariga qiziqish tobora avj olib bormoqda, chunki ular qattiq jismlardagi magnit hodisalari fizikasining fundamental muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi 10-15 yil ichida nodir yer birikmalari magnitoptikasi va optikasiga bag'ishlangan ishlar soni keskin ortdi. Bundan tashqari, dunyoning turli mamlakatlari olimlari XX asrning oxirlarida mikroskopik nazariyani birinchi marotaba nodir yer birikmalaridagi magnitoptik hodisalarni tushuntirishga muvofiqiyatli qo'lladilar. Nodir yer ortoaluminatlarining termodinamik (shuningdek, magnit va issiqlik) xususiyatlari asosan C_s va C_{4v} simmetriyaning kristall qobig'i tufayli shakllanadigan nodir yer ionlarining asosiy multipletlari quyi Shtark sathostilari orqali aniqlanadi, bunda tabiiy ravishda qaralayotgan kristallarning uyg'otilgan

holatlariga kristall maydon (KM) qanday ta'sir qiladi degan savol tug'iladi. Kristallarda magnitofaol ionlarning asosiy holatlarigina emas, balki uyg'otilgan elektron holatlari ham quyi simmetriyali KM ta'siriga duchor bo'ladi, bu holda tashqi H magnit maydonining xuddi shu vaqtdagi ta'siri natijasida ularning modifikatsiyalari va nodir yer birikmalari magnitoptik effektlari (ularning kattaliklari, anizotropiyasi va boshqalar) tabiati sezilarli ravishda o'zgaradi. Nodir yer ionlarining kristall qobig'i simmetriyasi ion elektron holati simmetriyasi va energiyalari xarakteristikalarini aniqlaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, paramagnit kristallarda paramagnit NY granatlari uchun xarakterli bo'lgan D_2 simmetriyali pozitsiyalarda va kaliy – terbiyli ikkilangan fluorid ($\text{KTb}_3\text{F}_{10}$) paramagnit kristallari uchun xarakterli bo'lgan C_{4v} simmetriyali yuqori simmetrik pozitsiyalarda joylashgan NY ionlarining bunday tadqiqotlari o'ta muhim masala hisoblanadi. Nodir yer ortoalyuminatlarida biz quyi simmetriyali kristallarga xos bo'lgan katta tabiiy ikkilanma nur sindirish «fonida» magnit doiraviy dixroizm yoki Faradey effekti (FE) kabi chiziqli magnitoptik effektlarning notrivial muammolari bilan to'qnash kelamiz. Optik va magnitoptik tadqiqotlarning chop etilgan kattaliklaridan ma'lumki, NY ortoalyuminatlarining magnitoptik xususiyatlari qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, bunday kristallar uchun xarakterli bo'lgan katta tabiiy ikkilanma nur sindirish tufayli magnitoptik effekt kattaliklari va ortorombik kristall qalinligi o'rtasidagi mutanosiblikning yo'qligi tufayli kristall orqali o'tadigan yorug'lik nurlanishining qutblanishi ellipsining katta o'qi burilish burchagi yetarlicha kichik va absolyut qiymati jihatidan spektrning ko'rinadigan sohasida real erishish mumkin bo'lgan magnit maydonlarida (~ 10 kOe) bir necha yoy minutidan ortmaydi. Ikkinchidan, katta tabiiy ikkilanma nur sindirish ($\sim 10^{-2}$) mavjudligidan optik o'lchashlar qiyinlashadi va yorug'lik nurlanishining qutblanishi ellipsining katta o'qi burilish burchagining bog'lanishlarida (to'lqin uzunligi va temperaturaviy bog'lanishlarida) kuchli tebranuvchi bog'lanishlar namoyon bo'ladi.

Yetarlicha tabiiy ikkilanma nur sindirish xususiyatiga ega quyi simmetriyali kristallardagi NY ionlarining magnitoptik faolligini tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar sonining nisbatan kamligi xuddi shu hol bilan tushuntiriladi. Shuning uchun yuqorida ta'kidlangan holat past T temperaturalarda (22 K gacha) optik, shuningdek ko'rinadigan va ultrabinafsha spektr sohalarida TbAlO_3 NY ortoalyuminatida magnitoptik tadqiqotlarni amalga oshirishga turtki bo'ldi. Shu sababli, ushbu dissertatsiya ishida C_s va C_{4v} simmetriya kristall maydonlarining ortoalyuminat va kaliy-terbiyli ikkilangan fluorid ($\text{KTb}_3\text{F}_{10}$) kristali strukturalaridagi NY ionlari optik va magnitoptik xususiyatlari, hamda energetik spektrlariga ta'sirini eksperimental tadqiq qilish vazifalari qo'yilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Mazkur dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida olib borilayotgan «Kondensirlangan muhitlarning optik tadqiqotlari» mavzuidagi fundamental tadqiqotlar bilan bevosita bog'liq. Natijalarning aksariyat qismi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida olib borilayotgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni

rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasining FZ-202009143 raqamli «Magnit maydoni yordamida nodir yer elementlari bilan faollashtirilgan oksidli va ftoridli kristallarning optik xarakteristikalarini boshqarish» grant loyihasi doirasida olingan (grant 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan).

Tadqiqotning maqsadi: RAlO_3 ortoalyuminati strukturasi va kaliy-terbiyli $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ (KTF) ikkilangan ftorid kristalida Tb^{3+} va Dy^{3+} nodir yer ionlarining magnit va optik, hamda magnitoptik eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish, shuningdek tadqiq qilinayotgan nodir yer ionlarining magnitoptik faolliklari mexanizmlari va energetik spektrlariga C_s va C_{4v} simmetriyali kristall maydonlarining ta‘sirini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

1) DyAlO_3 disproziyli ortoalyuminatda Faradey effektining spektral va temperaturaviy bog‘lanishlarini eksperimental tadqiq qilish, ular magnitoptik xususiyatlarining xuddi shunga o‘xshash nodir yer paramagnit granatlarning xususiyatlaridan farqli fizik tabiatini aniqlash.

2) C_s simmetriyali kristall maydonda tadqiq qilinayotgan ion energetik spektrini tuzish xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng temperatura intervalida ko‘rinadigan va ultrabinafsha spektr sohalarida TbAlO_3 nodir yer ortoalyuminati optik spektrlarini eksperimental tadqiq qilish.

3) Ultrabinafsha spektr sohalarida TbAlO_3 nodir yer ortoalyuminati Faradey effektida paramagnit hissani hisoblash va tadqiq qilish.

4) $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ (KTF) ftoridli kristallar optik spektrlarini eksperimental tadqiq qilish va C_{4v} simmetriyali kristall qobig‘ida Tb^{3+} ionlari ${}^5\text{D}_4$ va ${}^7\text{F}_6$ multipletlari o‘rtasidagi o‘tishlar identifikatsiyasi.

5) $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ kristallarining magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiyasi va fluoressensiya past temperaturali spektrlari darajalarini qarab chiqish natijalari asosida C_{4v} simmetriyali kristall maydonda mavjud bo‘lgan Tb^{3+} ionlari ${}^5\text{D}_4$ va ${}^7\text{F}_6$ multipletlari energetik spektrlarida dublet holatlar (va ularning energiyalari) mavjudligini aniqlash.

Tadqiqotning predmeti: ortoalyuminatlar va ftoridlar monokristallarida Tb^{3+} va Dy^{3+} ionlari energetik spektrlari tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini va ularning optik, hamda magnitoptik xususiyatlariga kristall qobiqning ta‘sirini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti: tadqiqot obyektlari DyAlO_3 disproziyli ortoalyuminat va terbiyli monokristallar (TbAlO_3), shuningdek kaliy-terbiyli ikkilangan ftorid kristallaridir ($\text{KTb}_3\text{F}_{10}$).

Tadqiqotning metodlari: Eksperimental tadqiqotlarda differensial magnitoptika metodlari – magnit doiraviy dixroizmi (MDD), magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiyasi (MSQL) va Faradey effekti (FE) metodlaridan foydalanildi. Optik xususiyatlarni o‘lchash optik yutilish, fluoressensiya va lyuminessensiyani uyg‘otish spektrlarini (LUS) tadqiq qilish asosida amalga oshirildi. Magnitlangan namunadan chiqayotgan yorug‘lik oqimini modulyatsiyalashgan qutblash metodi; optik sxemadan chiqayotgan signalni qayd qilishning elektron sxemasida foydalanilgan sinxron detektorlash metodi;

eksperimental axborotlarni qayta ishlashning matematik va sonli hisoblash metodlari va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Birinchi marotaba DyAlO_3 kristalida magnit qabul qiluvchanlik hamda Faradey effektining temperaturaviy va spektral bog‘lanishlari tahlili asosida disproziy ortoalyuminatida C_s simmetriya kristallik strukturasida magnitoptik faollik «paramagnit» mexanizmi muhim rol o‘ynashi, ya’ni tajribalarda nodir yer granatlari bilan solishtirganda qisqa to‘lqinli (< 200 nm) sohada to‘lqin uzunligining siljishi aniqlandi. Bunga ortoalyuminat strukturalarida granatlar bilan solishtirganda Tb^{3+} va Dy^{3+} ionlarida ruxsat etilgan tebranishlar kuchining deyarli ikki marta ortishi sabab ekanligi ko‘rsatilgan.

Ilk marotaba 20 K temperaturada TbAlO_3 kristalini tadqiq qilishda olingan spektrlarni tahlil qilish natijasida Tb^{3+} ionining 7F_6 asosiy multipleti quyi qismida bir-biridan $\sim 200 \text{ cm}^{-1}$ energetik interval bilan ajratilgan ikki guruh Shtark sathostilari, shuningdek 7F_6 multipleti eng quyi holatlarining kvazidublet strukturasini aniqlangan.

Ilk bora, spektrning ultrabinafsha sohasida TbAlO_3 kristali Verde doimiysining chastotaviy bog‘lanishlarining tahlili asosida $\omega^* = 66,5 \cdot 10^{14} \text{ s}^{-1}$ ($\lambda^* = 285 \text{ nm}$) chastotada ushbu bog‘lanishda manfiy ekstremum mavjudligi va Verde doimiysiga spektrning 230 – 250 nm sohasidagi ruxsat etilgan (spin va juftlik bo‘yicha) $4f \rightarrow 5d$ o‘tishlar hisobiga yuzaga keladigan «paramagnit» ulushning hissasi sezilarli ekanligi ko‘rsatilgan.

Ilk marotaba, $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ (KTF) kaliy-terbiyli ikkilangan ftorid kristali optik spektrlaridan $T = 90$ ba 300 K temperaturalarda qaralayotgan kristallda ultrabinafsha uyg‘otilish sohasida kuzatiladigan barcha fluoressensiya chiziqlari to‘laligicha Tb^{3+} ionidagi ${}^5D_4 \rightarrow {}^7F_6$ o‘tishlar bilan aniqlanuvchi 482 - 497 nm to‘lqin intervalida ekanligi aniqlangan.

$\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ kristalida FL va MSQ darajasining past temperaturali spektrlarini birgalikda qarab chiqishda olingan natijalardan 7F_6 multipletning energetik spektrida uch dublet holati (va ularning energiyalari) mavjudligi ko‘rsatib berildi va C_{4v} simmetriyali kristall maydonida joylashgan Tb^{3+} ionni 5D_4 multipletida ikkita dublet holat mavjudligi aniqlangan, bu esa o‘z navbatida nazariy hisoblash natijalariga mos kelishi tasdiqlangan.

Ilk bora, $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ kristalida olib borilgan o‘lchash natijalari asosida Tb^{3+} ionni C_{4v} simmetriyali kristall qobig‘ining energetik spektrga ta’siri qayd qilindi. $\text{KTb}_3\text{F}_{10}$ kristali 7F_6 multipletida 253 cm^{-1} energiyada yotuvchi dublet holati aniqlandi va uning ajralishi omili nazariy hisoblandi, shuningdek 7F_6 multiplet asosiy holatining dublet tabiati eksperimental tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

- Nodir yer ortoalyuminatlari va kaliy-terbiyli ftoridlarning optik va magnitoptik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida yorug‘lik nurlanishi modulyatorlari, optik izolyatorlar, spektrning ko‘rinadigan va ultrabinafsha sohalarida samarali ishlovchi displeylar kabi turli magnitoptik qurilmalar yaratish;

- tadqiq qilingan nodir yer birikmalaridan fotonika va rentgen ssintillyatorlarida faol va passiv elementlar sifatida, shuningdek standart optik damlashdan foydalangan holda ko‘rish diapazonidagi generatorlarda faol muhit sifatida foydalaniladi;

- tadqiq qilingan nodir yer birikmalaridan yuqori quvvatli lazer sistemalarida effektiv optik izolyatorlar sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: C_S va C_{4V} simmetriyali kristall maydonlarda Tb^{3+} va Dy^{3+} nodir yer ionlari energetik spektrlaridagi nozik strukturalar to‘g‘risida axborot (ma‘lumotlar) lar olindi. Shuningdek, magnitoptik effektlar kattaliklariga ta‘sir qiluvchi turli magnitoptik faollik mexanizmlarini aniqlash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Olingan tadqiqot natijalari multipletlar sathostilaridagi magnitoptik o‘tishlarda ishtirok etuvchi Zeeman ajralishlari kattaliklarini hisoblash imkonini beradi.

Optik va magnitoptik tadqiqotlar natijalari shundan dalolat beradiki, KTb_3F_{10} va $RAIO_3$ ($R = Tb^{3+}, Dy^{3+}$) lar hozirgi vaqtda ishlatilayotgan terbiy – galliyli $Tb_3Ga_5O_{12}$ granatlari kristallarining o‘rniga muvaffaqiyatli ishlatishlari mumkin ekan. Bu holda ularning afzalliklari shundan iboratki, ularda olingan Verde doimiylari absolyut qiymati jihatidan $Tb_3Ga_5O_{12}$ kristallarining Verde doimiylaridan yuqori va ular asosida magnitoptik qurilmalar yaratish mumkin ekan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan tajriba natijalarini boshqa qayd qilish usullari yordamida olingan ma‘lumotlar bilan taqqoslash imkonining mavjudligi, shuningdek eksperimental natijalarni nazariy hisob-kitoblar bilan taqqoslash imkoniyati mavjudligidadir. Optik va magnitoptik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida spektral bog‘lanishlarni qayd qilish va qayta ishlashning zamonaviy metodlaridan foydalangan boshqa tadqiqotchilarning olgan ma‘lumotlari bilan solishtirish maqsadida olib borilgan parallel tadqiqotlar bilan olingan natijalar ishonchliligi ta‘minlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Nodir yer ionlarining optik, magnitoptik va energetik spektrlarini hisoblash usuli va olingan qiymatlar va nodir yer ionlarining optik xossalari magnit maydoni ta‘sirining mikroskopik mexanizmlaridan

«Metall oksidlari bilan legirlangan silikatlardagi termoelektrik xususiyatlar va o‘z-o‘zini tashkil qilish jarayonlari» mavzusidagi O‘zbekiston–Hindistonning Uzb-Ind-2021-78-raqamli qo‘shma fundamental tadqiqotlar loyihasi ilmiy-texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 12-dekabrda 01/11-13009-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi silikat shishalarni metall oksidlari bilan legirlash jarayonida hosil bo‘luvchi nanokristallardagi struktura o‘tishlarini optik xossalari orqali o‘rganish; legirlangan silikat shishaning optik xossalari termoelektrik koeffitsientiga ta‘sirini aniqlash; legirlangan silikat shisha tarkibidagi nodir yer metallari (La_2O_3 , Nd_2O_3) ionlarining elektr o‘tkazuvchanlik va termoelektrik koeffitsientiga ta‘sirini aniqlash imkonini bergan.

ortoaluminat va kubik kristallar strukturalarida nodir yer ionlarining optik, magnitoptik va energetik spektrlariga C_s va C_{4v} simmetriyali kristall maydonlarining ta'siri bo'yicha hisoblangan kattaliklar;

paramagnit triflorid, alyuminiy granatlari va granat-gallatlar monokristallarida magnit sirkulyar ikkilamchi sinish va magnitoptik effektlarda turli mikroskopik aniqlangan mexanizmlaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida "Ko'p fazali tizimlar issiqlik fizikasi" laboratoriyasida 01.01.2022 -31.12.2022 yillarda bajarilgan "Dielektrik va segnetoelektrik kristallarda nochiziqli hodisalar, fazaviy o'tishlar va elastik, fotoelastik hamda superior xususiyatlar anizotropiyasi" mavzusidagi fundamental loyihasida nodir yer elementlari, trifloridlari uchun olingan sindirish ko'rsatkichining qiymatlaridan foydalanilgan (O'zR FA sining 2024-yil 28-noyabrdagi 2/1255-2650-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi lantan va terbiy trifloridlarida akustooptik sifat koeffitsiyentini (M_2) hisoblash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining asosiy tadbiqui olingan natijalarga, Web of Science va Scopus ilmiy ma'lumotlar bazasiga ko'ra, yuqori impakt faktorli jurnallarda chop etilgan eksperimental va modellashtirish tadqiqotlarida, shuningdek maqolalarda sharh iqtibos keltirish orqali joriy qilingan:

1. Uygun V.Valiev, Denis N.Karimov, Chong-Geng Ma, Odiljon Z.Sultonov and Vasiliy O.Pelenovich, Tb^{3+} Ion Optical and Magneto-Optical Properties in the Cubic Crystals KTb_3F_{10} // Materials, 2022, 15, 7999. <https://doi.org/10.3390/ma15227999> maqolaga 3 ta chet el ilmiy jurnallariga havolalar keltirilgan: 1) Artem B.Kuznetsov, Yerassyl A.Zholdas, Liudmila A.Gorelova, Anastasiya D.Fedorenko, Alexey A.Ryadun, Yurii V.Seryotkin, Vyacheslav S.Shevchenko, Alexander E.Kokh, Alexandr O.Klimov, and Konstantin A.Kokh., Synthesis, Growth, and Luminescence Properties of Rare Earth Borates $KSrY(BO_3)_2: Tb^{3+}$ and Tb^{4+} // Cryst. Growth Des. 2024, 24, 5478–5485; 2) Sonia Redhu, Devender Singh, Anjali Hooda, Sofia Malik, Vandana Aggarwal, Swati Dalal, Sumit Kumar, Rajender Singh Malik, Parvin Kumar., Photoluminescence tuning of terbium tris-1,1,1-trifluoro-5,5-dimethyl-2,4-hexanedione complexes: Synthesis, spectroscopic, thermal and electrochemical analyse// Journal of Luminescence 271 (2024) 120588, <https://doi.org/10.1016/j.jlumin.2024.120588>; 3) E.A.Mironov, I.L.Snetkov, A.V.Starobor, and O.V.Palashov, A perspective on Faraday isolators for advanced lasers// Appl. Phys. Lett. 122, 100502 (2023); doi: 10.1063/5.0138031.

2. U.V.Valiev, M.E.Malysheva, Sh.A.Rakhimov, O.Z.Sultonov, Specific Features of the Faraday Effect in Rare-Earth Orthoaluminate $DyAlO_3$ // Optics and Spectroscopy, 2022, 130(4), 295-301 maqolaga 2 ta chet el ilmiy jurnallariga havolalar keltirilgan: 1) Синьбин Цзяо, Шии Бао, Шуминь Ли., Dynamic responses of garnet-type optical AC sensor based on Faraday effect// IEEE Sensors Journal, 2023, 26,13, 18092 – 18098с, DOI: 10.1109/JSEN.2023.3287472; 2) В.В.Осипов, А.Н.Орлов, В.В.Лисенков, Р.Н.Максимов, В.А.Шитов,

Distribution of the Magnetic Field in the Gap between Two Permanent Magnets: Calculated and Experimental Data and Their Applications// Instrum Exp Tech 66 , 995–1002 (2023). <https://doi.org/10.1134/S0020441223060064>.

Tadqiqot natijalarining aprobanteiyasi: Dissertatsiya ishining najjalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi: Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 11 ta ilmiy nashrlarda e’lon qilingan: jumladan 4 ta ilmiy maqola: shulardan 3 tasi chet el ilmiy jurnallarida va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining tavsiya qilgan jurnallarida, 7 ta tezis ma’ruzalarida ish natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi: Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi, shu jumladan 25 ta rasm va 2 ta jadvallar.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, mavzuning obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning amalda qo‘llanilishining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Dissertatsiya strukturasi va dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chop etilgan ishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Nodir yer elementlarining kristall strukturalari va magnitoptik xususiyatlari**» mavzusidagi birinchi bobida magnit, optik hamda magnitoptik xususiyatlar, ortoalyuminatlar va ftoridlarlarning kristallari kristallografik strukturasi qarab chiqiladi. Quyi simmetriyali kristall maydonda mavjud NY ionlari energetik spektrlaridagi man qilingan konfiguratsiyalar ichidagi o‘tishlar uchun Jad-Ofelt nazariyasining asosiy holatlari qarab chiqilgan. NY birikmalari magnitoptikasi bo‘yicha adabiyotlar tahlili asosida qaralayotgan obyektlarda magnitoptik faollikning yuzaga kelishi ma’lum bo‘lgan barcha mexanizmlari batafsil bayon qilingan. Dissertatsiyaning tadqiqotlar mavzusiga oid eksperimental va nazariy ishlarining qisqacha tahlili berilgan.

«**Eksperimental tadqiqotlar metodikasi va namunalar**» mavzuidagi ikkinchi bobda optik, magnit va magnitoptik tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanilgan eksperimental qurilma va o‘lchash metodikalari bayon qilingan. Tadqiq qilinayotgan namunalarning asosiy xarakteristikalarini keltirilgan hamda o‘lchash xatoliklari tahlil qilingan.

Nodir yer ortoalyuminatlarining $TbAlO_3$ terbiyli va $DyAlO_3$ disproziyli monokristallari “eritmadan qotishmaga” spontan kristallashish metodi orqali Nirim kristallar o‘stirish laboratoriyasida (Yaponiya) doktor M.Miyazawa tomonidan o‘stirilgan. Namunalar, rentgenografik metodda (111) va (110) kristallografik tekisliklarda yo‘naltirilgan. KTb_3F_{10} (KTF) monokristallari eritmadan

yo‘naltirilgan kristallashish metodida Shubnikov nomidagi kristallografiya institutida (Rossiya) o‘stirilgan.

Optik, magnit va magnitooptik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi eksperimental qurilmalardan foydalanildi:

1) MDD va MSQ spektrlarini o‘lchash qurilmasi;
 2) Lyuminessensiya spektrlarini o‘lchash qurilmasi;
 3) NY birikmalari magnit xususiyatlarini o‘lchash qurilmasi: tebranuvchi namunali tebranish magnetometri.

4) Optik yutilish spektrlarini o‘lchash qurilmasi: optik zichligi D bo‘lgan uzluksiz signallarni qayd qilish imkoni mavjud MDR-23 monoxromator asosida amalga oshirilgan bir nurli difraksion spektrofotometr;

5) Faradey effektini o‘lchash qurilmasi.

«**DyAlO₃ nodir yer ortoalyuminatida Faradey effektining o‘ziga xos xususiyatlari**» nomli uchinchi bobda DyAlO₃ nodir yer ortoalyuminatida Faradey effekti va magnit qabul qiluvchanlikni tadqiq qilish natijalari keltirilgan. DyAlO₃ monokristall namunalarning Faradey effekti tadqiqotlari 78-300 K temperatura intervalida rombik kristallning b “yengil” magnitlanuvchi kristallografik o‘qi bo‘yicha amalga oshirildi.

1-rasmda DyAlO₃ ortorombik kristalining b o‘qi bo‘ylab $T = 90$ (1) va 300 K (2) temperaturalarda o‘lchangan θ burchakning spektral bog‘lanishlari keltirilgan ellipsning katta o‘qi burilish burchagi θ quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} 2\theta = \sin \chi \sin \Phi = \frac{\varepsilon_{xy}}{\bar{n} \cdot \Delta n} \cdot \sin \frac{2\pi \cdot \Delta n \cdot l}{\lambda} \quad (1)$$


bu yerda ε_{xy} - muhit dielektrik singdiruvchanligining tenzori tashkil etuvchisi, $\bar{n} \approx (n_{xx} + n_{yy})/2$ - kristall sindirish ko‘rsatkichining o‘rtacha qiymati; l - kristall qalinligi; λ - yorug‘likning vakuumdagi to‘lqin uzunligi; $\Delta n = n_{xx} - n_{yy}$ - tabiiy kristallografik ikkilanma nur sindirish ko‘rsatgichi. Ushbu rasmdan yaxshi ko‘rinib turibdiki θ burchakning to‘lqin uzunligi yoki temperatura va kristall qalinligiga bog‘liqligi tebranuvchi xarakterga ega bo‘lib, tebranish amplitudasi ε_{xy} ga, ularning davri esa tabiiy ikkilanma nur sindirish kattaligi Δn ga teskari proporsional ekan.

2-rasmda $\lambda = 506 \text{ nm}$ to‘lqin uzunligida DyAlO₃ ning b o‘qi bo‘ylab o‘lchangan burilish burchagining θ ning temperaturaga bog‘liqligi grafigi keltirilgan. Qutblanish ellipsi katta o‘qi burilish burchagi θ ning temperaturaga bog‘liqligi grafigidan ko‘rinadiki (2-rasm) namuna temperaturasi kamayishi bilan θ burchak tebranish davri kichrayadi va bu tabiiy ikkilanma nur sindirish ko‘rsatkichining kuchsiz ortishi tufayli sodir bo‘ladi.


Bunda yaqqol ko‘rinib turibdiki θ tebranish amplitudasi kattaligi ortadi. θ burchakning temperaturaviy va spektral bog‘lanishlaridan

$$V = 2 \left(\frac{\theta}{H} \right) \cdot \frac{\pi}{\lambda} \Delta n \quad (2)$$

formula orqali $DyAlO_3$ nodir yer ortoalyuminati V Verde doimiysining spektral bog‘lanishlarini hisoblash mumkin (3-rasm).



1-rasm. $T = 90$ (1) va 300 K (2) temperaturalarda $l = 0,42$ sm qalinlikdagi $DyAlO_3$ rombik kristali b o‘qi bo‘ylab o‘lchangan θ/H kattalikning spektral bog‘lanishlari.




2-rasm. $\lambda = 506$ nm to‘lqin uzunligida $DyAlO_3$ dagi b o‘q bo‘ylab o‘lchangan θ/H kattalikning temperaturaviy bog‘lanishlari. Ilovada: ushbu to‘lqin uzunligidagi $DyAlO_3$ ning V Verde doimiysining ortorombik kristallning b o‘qi bo‘ylab o‘lchangan molyar magnit qabul qiluvchanligi χ ga bog‘liqligi.

3-rasmda keltirilgan eksperimental kattaliklardan ko‘rinadiki to‘lqin uzunligining kamayishi bilan $T = 90$ K da Δn kattalikning monoton ortishi kuzatiladi.

2-rasmning ilovasida $\lambda = 506$ nm to‘lqin uzunligidagi $DyAlO_3$ ning V Verde doimiysining ortorombik kristallning b o‘qi bo‘ylab o‘lchangan molyar magnit qabul qiluvchanligi χ ga bog‘liqligi keltirilgan. Eksperimental xatolik chegarasida ushbu bog‘lanish chiziqli va u $DyAlO_3$ da Faradey effektining chastotaviy bog‘lanishlarini hisobga olgan holda V Verde doimiysi uchun ifodani quyidagi ko‘rinishda tasvirlash imkonini beradi:

$$V = (C_p \chi + D) \frac{\omega^2}{(\omega_0^2 - \omega^2)} \quad (3)$$

bu yerda V - Verde doimiysi; ω – yorug‘lik chastotasi; C_p - «paramagnit» Verde doimiysi deb ataluvchi kattalik; D – tashqi magnit maydonida Dy^{3+} nodir yer ionining asosiy va uyg‘otilgan multipletlari «aralashish» hissasi.



3-rasm. T = 90 K (1) va 300 K (2) temperaturalarda rombik kristalining b o'qi bo'ylab o'lchangan DyAlO₃ ortoalyuminatning Verde doimiysi spektral bog'lanishlari. Ilovada: T = 90 K temperaturada topilgan Δn kattalikning spektral bog'lanishi keltirilgan.

D aralashish hissasi kattaligi yetarlicha kichik bo'lib, kelgusida uni e'tiborga olmaslik mumkin. 1-jadvalda DyAlO₃ va TbAlO₃ nodir yer ortoalyuminatlari hamda Dy₃Al₅O₁₂ va Tb₃Al₅O₁₂ nodir yer granatlaridagi Faradey effektini o'lchash natijalaridan aniqlangan C_p va ω_0 kattaliklar solishtirilgan.

1-jadval.


Ortoalyuminat va granatlar kristallaridagi Dy³⁺ va Tb³⁺ nodir yer ionlarining C_p va λ_0 parametrlari

NY birikmalari	λ_0 (nm)	$C \cdot 10^3$ (min/sm·Oe)
TbAlO ₃	192 ± 3	5,5 ± 0,2
Tb ₃ Al ₅ O ₁₂	264 ± 2	4,0 ± 0,05
DyAlO ₃	190 ± 5	6,8 ± 0,3
Dy ₃ Al ₅ O ₁₂	210 ± 3	3,78 ± 0,04


Nodir yer ortoalyuminatlarida topilgan ω_0 "effektiv" chastotalari (aniqrog'i λ_0 – to'liqin uzunliklari) ni nodir yer granatlarida olingan xuddi shunday kattaliklar bilan solishtirish natijasida shu narsa aniqlandiki RAlO₃ strukturalarda ruxsat etilgan o'tishlar to'liqin uzunliklari nodir yer granatlari bilan solishtirilganda spektrning qisqa to'liqin sohasiga tomon siljir ekan (<200 nm). Bundan tashqari nodir yer birikmalarining "paramagnit" Verde doimiysi C_p ruxsat etilgan o'tishlar f tebranish kuchlariga va ulardagi ω_0 chastotalarga to'g'ri proporsional. C_p ω_0 ko'paytma kattaligi bir tomondan Dy³⁺ va Tb³⁺ ionlari tebranish kuchi o'zgarishlarini baholash imkonini bersa, ya'ni aynan bir kristall qobiqlarda bir iondan boshqasiga o'tish jarayonida yuzaga keladigan, ikkinchi tomondan aynan bir ion uchun f parametrning mumkin bo'lgan o'zgarishlarini baholash imkonini beradi, bu esa uning kristall qobig'i simmetriyasining D_2 simmetriyadan (granat) C_s simmetriyaga (ortoalyuminat) pasayishi tufayli sodir bo'ladi. Keltirilgan baholashlar ortoalyuminat strukturalaridagi NY ionlarining granatlardagi ishlar bilan solishtirilganda, ularga nisbatan tebranish kuchlarining deyarli ikki marta ortishini namoyish qiladi.

«Ortoalyuminat va kaliy-terbiyli ikkilangan fluorid kristallarida Tb³⁺ ionining optik va magnitoptik xususiyatlari» nomli to'rtinchi bobda spektrning ultrabinafsha sohasidagi yutilish va fotolyuminessensiya spektrlari, qutblanish ellipsi katta o'qi burilish burchagining Faradey effekti spektral bog'lanishlari,

shuningdek $TbAlO_3$ kristalida Verde doimiysining dispersion bog‘lanishlari hamda $K Tb_3F_{10}$ kub kristalida Tb^{3+} ionining optik va magnitoptik spektrlari keltirilgan. $TbAlO_3$ kristallning turli temperaturalari uchun lyuminessensiyani uyg‘otish spektrlari 220 – 350 nm spektral sohada tadqiq qilindi. 220 – 350 nm to‘lqin uzunligidagi sohada lyuminessensiyani uyg‘otish spektrining o‘ziga xos xususiyatlari uni uyg‘otuvchi nurlanishning kuchli reabsorbsiyasiga olib keluvchi intensiv optik yutilish polosasi bilan bog‘liq (4-rasm). Ushbu polosa ortoalyuminat strukturasi Tb^{3+} ionlarida amalga oshuvchi $4f^{(8)}(^7F_6) \rightarrow 4f^{(7)}5d(e_g)$ ruxsat etilgan (elektrodipol yaqinlashishida) o‘tishlar sababli hosil bo‘ladi. $TbAlO_3$ dagi yutilish polosasida $4f \rightarrow 5d$ uyg‘otilish 5-rasmda keltirilgan lyuminessensiya (fluorensensiya) intensiv polosalarining paydo bo‘lishiga olib keladi va bu $4f^{(8)}(^5D_4) \rightarrow 4f^{(8)}(^7F_j)$, bu yerda $J = 6,5,4,3$, $4f \rightarrow 4f$ “majburiy” o‘tishlar deb ataluvchi emission ta’qiqlangan (elektrodipol yaqinlashishida) o‘tishlar bilan bog‘liq.



4-rasm. $T = 20 \div 300$ K temperatura intervalida $TbAlO_3$ kristalida o‘lchangan lyuminessensiya spektrlari. Tadqiq qilingan namuna qalinligi 200 μm ni tashkil qildi.




5-rasm. 450 ÷ 700 nm spektral diapozonidagi to‘lqin uzunliklarida 22 K temperaturada o‘lchangan $4f \rightarrow 4f$ “majburiy” o‘tishlar bilan bog‘liq lyuminessensiya spektrlari polosasi. Turli polosalar intensivliklari bir xil masshtablarda berilgan.

Ko‘rinib turibdiki $4f^{(8)}(^5D_4) \rightarrow 4f^{(8)}(^7F_6)$ lyuminessensiya polosasining qisqa to‘lqinli qismida 5-rasmda strelkalar bilan belgilangan 485,59 nm (20588 cm^{-1}) va 490,33 nm (20388 cm^{-1}) to‘lqin uzunliklaridagi 1- va 2-yakkalangan ikkita lyuminessensiya chiziqlari kuzatiladi. Ushbu chiziqlarning kuzatilishi Tb^{3+} nodir yer ionining asosiy 7F_6 multipletining quyi Shtark sathostilari orasida yuzaga keladigan nurlanishli o‘tishlar bilan bog‘liq. Buning natijasida, shuni aytish mumkinki 7F_6 multipletining quyi qismida $\sim 200 \text{ cm}^{-1}$ energetik interval bilan ajratilgan faqat ikki singlet “kvazidublet” deb ataluvchi, ortoalyuminat strukturasi nodir yer ioni kristall qobig‘i strukturasi uchun xarakterli bo‘lgan C_s simmetriyali kristall maydonda Tb^{3+} nokramers ioni asosiy holati hisoblanadigan kvazidubletni shakllantiradi.


Spektrning ultrabinafsha sohasida $TbAlO_3$ da amalga oshirilgan (olingan) lyuminessensiyani uyg‘otish spektrlarini o‘lchash natijalari shuni ko‘rsatdiki 230-

